

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024- yilning yanvar-mart oylarida Navoiy viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinnarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 20 993,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2023- yilning yanvar-mart oylari bilan taqqoslaganda 7,8 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2023- yilning yanvar-mart oylari narxlariga nisbatan 121,8 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Navoiy viloyatining qo'shgan hissasi 8,6 % ga yetdi.

2024- yilning yanvar-mart oylarida Navoiy viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



107,8 %

20 993,1 mlrd. so'm



121,8 %

8,6 %

- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi

2024- yilning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o‘sish sur’atlari

	<i>Mird. so‘m</i>		<i>O‘sish sur’atlari, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da</i>
	<i>2023- yil</i>	<i>2024- yil</i>	
I. YAHM, jami	15 990,1	20 993,1	107,8
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo‘silgan qiymati	15 721,2	20 768,9	107,8
mahsulotlarga sof soliqlar	268,9	224,2	108,1
II. Tarmoqlarning yalpi qo‘silgan qiymati	15 721,2	20 768,9	107,8
qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	1 189,3	1 337,8	104,2
sanoat (qurilishni qo‘shtigan holda)	12 314,5	16 705,7	108,5
sanoat	11 815,1	16 136,1	108,4
qurilish	499,4	569,6	109,6
xizmatlar	2 217,4	2 725,4	105,8
savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	516,3	614,5	108,2
tashish va saqlash, axborot va aloqa	304,8	395,6	114,8
boshqa xizmat tarmoqlari	1 396,3	1 715,3	103,0



Quyida keltirilgan infografikadan ko‘rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 19 481,3 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilga nisbatan 5,8 % ga yuqoridir.

2024- yilning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi (ming so‘mda)



2024- yilning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o‘sish sur’atlari (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)



Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2023- yil	2024- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	98,3	98,9
mahsulotlarga sof soliqlar	1,7	1,1
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	7,6	6,4
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	78,4	80,4
sanoat	75,2	77,7
qurilish	3,2	2,7
xizmatlar	14,0	13,2
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	3,3	3,0
tashish va saqlash, axborot va aloqa	1,9	1,9
boshqa xizmat tarmoqlari	8,8	8,3



YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

5

2024- yilning yanvar-mart oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiyligi YAHMning 98,9 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 1,1 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 6,4 % ni, sanoat tarmog'i 77,7 % ni, qurilish 2,7 % ni va xizmatlar sohasi 13,2 % ni tashkil qildi.

Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlaribo'yicha YAHM tarkibi (*jamiga nisbatan % da*)

2023- yil



7,6 %

Qishloq, o'rmon va
baliqchilik xo'jaligi

1,7 %

Sanoat

3,2 %

Qurilish

14,0 %

Xizmatlar

2024- yil

Qishloq, o'rmon va
baliqchilik xo'jaligi

6,4 %

1,1 %

Sanoat

77,7 %

Qurilish

2,7 %

Xizmatlar

13,2 %



● Yalpi qo'shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar

YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 0,3 f.p. (2023- yilning yanvar-martida – 0,2 f.p.), sanoat tarmog'i – 6,2 f.p. (2023- yilning yanvar-martida – 0,8 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,3 f.p. (2023- yilning yanvar-martida – 0,1 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 0,9 f.p. (2023- yilning yanvar-martida – 0,4 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,1 f.p. (2023- yilning yanvar-martida – 0,03 f.p.)ga ko'paydi.

2024- yilning yanvar-mart oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)

YAHM



7,8 %

Sanoat




6,2 %

Xizmatlar



0,9 %

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



0,3 %

Qurilish



0,3 %

Mahsulotlarga sof soliqlar



0,1 %

2024- yilning yanvar-mart oylarida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 104,2 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 6,4 %), sanoatda – 108,4 % (77,7 %), qurilishda – 109,6 % (2,7 %), xizmatlar sohasida – 105,8 % ni (13,2 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 108,2 % (3,0 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 114,8 % (1,9 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 103,0 % dan (8,3 %) iborat bo'ldi.

Yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)

2023- y.

2024- y.



1,5 %

YAHM

7,8 %



2,8 %

Qishloq, o'rmon
va baliqchilik xo'jaligi

4,2 %



1,0 %

Sanoat

8,4 %



3,5 %

Qurilish

9,6 %



3,3 %

Xizmatlar


5,8 %

2024- yilning yanvar-mart oylarida YAHM deflyatori indeksi 2023- yilning yanvar-mart oylaridagi narxlarga nisbatan 121,8 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoatda – 125,9 % va xizmatlar sohasida – 116,1 % qayd etildi.

Yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)

2023- y.

2024- y.



2024- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik 3 864,9 mlrd. soʻmni tashkil etdi (2023- yilning yanvar-mart oylarida – 3 343,5 mlrd. soʻm). YAHMDagi ulushi 18,6 % ni (2023- yilning yanvar-mart oylarida – 21,3 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMDagi ulushining oʻtgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bogʼliq.

Yanvar-mart oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMDagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

Hajmi, mlrd.soʻm

Ulushi, % da



2023- yil

3 343,5

21,3 %

2024- yil

3 864,9

18,6 %

